

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TAFAKKUR VA AXLOQIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISH**

*Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar  
25- son DMTT direktor o‘rinbosari  
Rustamova Shohida Rustamovna*

**Annotatsiya:** maktabgacha yoshdagi bolalarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ekologik ta’lim-tarbiya berish, ekologik tafakkur va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish bolalarning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatlarini shakllantirishda ta’lim jarayonini tarbiyaviy tomonlarga, ayniqsa vatanparvarlik, insonparvarlik, ahloqiy, huquqiy, estetik, mehnat hamda ekologik madaniyat tarbiyasini rivojlantirish bilan bog‘liq metodlar ko‘rsatib berilgan.

**Аннотация:** Представлены методы экологического воспитания дошкольников на основе современных педагогических технологий, развития экологического мышления и нравственных ценностей, формирования у детей отношения к окружающей среде, что особенно актуально для воспитательной стороны образовательного процесса, а именно развития патриотической, гуманистической, нравственной, правовой, эстетической, трудовой и экологической культуры.

**Abstract:** Methods are shown for providing preschool children with environmental education based on modern pedagogical technologies, developing ecological thinking and moral values, and shaping children's attitudes towards the environment. These methods are especially relevant to the educational aspects of the educational process, especially the development of patriotic, humanitarian, moral, legal, aesthetic, labor, and ecological culture.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ekologik bilim, ekologik tarbiya berish, ularni tabiat bilan tanishtirishning bir qancha zamonaviy usullari mavjud bo‘lib, tabiatga mehr, unga ehtiyotkorlik munosabat, asrab-avaylash hislarini shakllanib borishiga xizmat qiladi. Barchamizga ma’lumki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limiy faoliyatlar bolalarga ta’lim va tarbiya berishning asosiy vositasi sanaladi. Bolalarga ta’limiy tarbiyaviy jarayonlar “Ilk qadam” davlat dasturi asosida, ta’lim tamoyillariga tayangan holda ularning yosh xususiyatlari inobatga olingan holda tashkil etiladi. Ta’limiy faoliyatlarda tarbiyachi tomonidan bolalarga dastlabki bilimlar berib boriladi. Bolalarga tarqatma materiallar, ko‘rgazmalar, videoroliklar, rasmlar orqali atrof-olam, tabiat, hayvonot olami haqida bilimlar beriladi. Shuningdek, kuzatish, rasmlarni ko‘rish, suhbatlar, didaktik o‘yinlar, badiiy asarlarni, hikoyalarni o‘qish, ekskursiya, mehnat faoliyatlari bolaga tabiatni his qilish,

eshitish, kuzatish imkonini beradi. Shu tariqa bolalarda tabiatga munosabat odobini tarbiyalanib, bilimlari ortib boradi.

Bugungi ekologik vaziyat insoniyatni jiddiy o'ylantirmoqda. Atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi, global isish va boshqa ekologik muammolar har bir kishidan, xususan tarbiyachilardanongli yondashuvni talab etadi. Shu bois maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ongning shakllantirish-zamon talabi hisoblanadi. "Ekologiya" atamasi yunoncha so'z bo'lib, "aykos"- "yashash joyi", "makoni", "logos"- "ta'limot" degan ma'noni bildiradi. "Ekologiya" atamasi birinchi marta nemis olimi Ernest Gekkl tomonidan 1886 yilda qo'llanilgan. U "Ekologiya – bu tabiat iqtisodiyotni bilish, bir vaqtning o'zida tirik organizmlarning muhitini organik va noorganik komponentlari bilan bo'lgan barcha munosabatlarni tadqiq qilishdir" deb ta'rif bergan.

Ekologik bilim bu o'zi nima? - Ekologik bilim atrof-olam, tirik tabiatning tuzilishi, borliq, o'sish, rivojlanish, o'zgarish, yer yuzidagi tirik jonzorlar, ularning yashash tarzi, holati, atrof-muhit o'rtasida munosabatlar, hodisalar, qazilma boyliklar, tabiiy boyliklar, ularning soni, sifati, hajmi, xossalari, xilma-xilligi hamda ulardan oqilona foydalanish, tejamkorlik bilan foydalanish yo'llarini haqidagi bilimlar yig'indisidir.

XXI asrda ekologik muammolar insoniyat hayoti va salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan muhim omillardan biriga aylandi. Atmosfera ifloslanishi, iqlim o'zgarishlari, o'rmonlarning kesilishi, suv resurslarining kamayishi, chiqindilar muammosi kabi ekologik muammolar bugungi kunda global darajada jiddiy e'tibor talab qilmoqda. Buday vaziyatda ekologik madaniyatli, tabiatga nisbatan ehtiromli va ongli munosabatda bo'lgan avlodni tarbiyalash zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim yo'nalishlardan biriga aylangan.

***Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun ekologik tarbiya** - ularning hayot tarzida ekologik madaniyatni shakllantirish jarayonidir. Bolalar yoshligidan tabiatni sevishga, uni asrashga, atrof-muhitdagi hodisalarni anglashga, o'rgansa, kelajakda ekologik muammolarga befarq bo'lmagan, ongli fuqarolar bo'lib voyaga yetadi.*

**Ekologik tafakkur va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning nazariy asoslari:**

- **Ekologik tafakkur**- bolalarning tabiatdagi jarayonlarni tushunish, ularning sabab-oqibat munosabatlarini anglash qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.
- **Axloqiy qadriyatlar**- tabiatga hurmat, uni asrash, tirik mavjudodlarga nisbatan mehr-muhabbat kabi xislatlarni o'z ichiga oladi.
- **Bolalarda ekologik tafakkur va axloqiy qadriyatlarni**- shakllantirishda yosh xususiyatlarni hisobga olish, o'yinlar, ekskursiyalar, kuzatishlar kabi faoliyatlar muhim o'rin tutadi.



Bugungi kunda yurtimizda maktabgacha ta'lim sohasida alohida e'tibor



qaratilmoqda. "Ilk qadam" (Takomillashtirilgan), Maktabgacha ta'lim davlat ta'lim standarti, Maktabgacha ta'lim konsepsiyalarining ishlab chiqilishi umumiy pedagogik jarayonning muhim qismidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik ta'lim berishning bir necha shakllari mavjud.

✚ To'g'ridan-to'g'ri ta'limiy o'yin faoliyati- Faoliyat bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishlarini tashkil etishning yetakchi shaklidir.

✚ Ekskursiyalar.

✚ Ekologik bayramlar va hordiq.

✚ Kundalik hayotda bolalarni tabiat bilan tanishtirish.

✚ Kuzatishlar.

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologik tafakkur va madaniyatni shakllantirish muammosi pedagogik tadqiqotlarda keng o'rganilgan bo'lsa-da, zamonaviy sharoitda bu masalani yanada chuqurroq o'rganish talab etiladi. Ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimining turli bo'g'inlarida ekologik tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini, shaxsning ekologik ongi va madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslarini yaxlit tizim sifatida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola kichik maktab yoshida tabiat bilan mustaqil o'zaro ta'sirga kirishisha oladi, demak unda ekologik ong shakllanishi yanada faollashadi. Odatda, bu yoshda sportning ayrim turlari bilan shug'ullanishga, tabiat hodisalari sabablarini aniqlashga ishtilish, uy jayvonlarini o'ynatishga moyillik va hokazolar ko'zga tashlanadi. Bu ehtiyojlarni vaqtida qo'llab-quvvatlash va ularni zarur yo'lga solish maktab va oilaning vazifasidir. Ayni paytda kattalar bolalarning o'zlariga ishonib topshirib qo'yilgan jonivorlar hayoti uchun mas'uliyatni nazorat qilib borishlari va shu mas'uliyat darajasini ko'tarishlari, jonivorlar bilan munosabat o'yin bo'lib qolmasligini kuzatib borishi zarur.

### **Tabiat bilan tanishtirishda ta'limiy o'yin faoliyatining vazifalari:**

✚ Tabiat va uning tarkibiy qismlari (o'simliklar, hayvonlar, suv resurslari) haqida bilim berish.

✚ Bolalarda tabiatda bo'lgan mehrni, uning go'zalligini anglashni rivojlantirish.

✚ Ekologik muammolarni tushuntirish va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha bolalarga oddiy amaliy maslahatlar berish.

✚ Voqea-hodisalarni muhim belgilarini ajratishga, solishtirishga va umumlashtirishga ularni ifodalash uchun aniq so'zlarni tanlashga o'rgatish, bog'langan nutqni rivojlantirish.

**Tarbiyachining vazifasi-** bu go'zallikni ajoyib bir his-hayajon bilan bolalarga singdirishdir. Kuzatishda mevalarning rangini, shaklini, o'sish joyini, ularning bir-biridan farqini, mevalar baland daraxtlarning shoxlarida, bog'larda o'sishini, ularning katta-kichikligi, rangi, shaklining bir-biridan farq qilishini; pomidor, baqlajonning hosili uncha baland bo'lmagan o'tsimon poyalarida o'sishini; sarimsoq piyoz, sabzi, turp, sholg'omning mevasi tuproq tagida bo'lishini; paxta, bug'doy, makajo'xorining poyalari daraxtlardan past, ammo o'tsimon o'simliklardan balandroq ekanligini, ularning mevasi, poyalari, bargi bir-biridan shakli jihatidan farq qilishini, kimlar o'stirishini so'zlab tushuntirib bering.

**Kutilayotgan natijalar:** Bolalarda tabiatning ahamiyati, uning turli qismlari va tabiiy resurslarini asrab-avaylash haqida tushunchasi ortadi va o'rganadi. Tabiat hodisalari va belgilarini umumlashtirish malakalari mustahkamlanadi, bolalar nutqi boyib, so'zlarni bo'g'inga bo'ladi va so'zdagi tovushlarni aniqlashi shakllanadi. O'z fikrini aniq bayon etishni biladi, nutqda keng tarqalgan gaplarni ishlatib, rasmga qarab ta'riflovchi hikoyalarni tuzishni o'rganadi tabiatni muhofaza qilish haqidagi tasavvurlari mustahkamlanadi. Savollarga javob beradi, jamoaviy suhbatga ishtirok etishni o'rganadi. Ekologik ongi shakllanib va tabiatni asrab-avaylashga qiziqadi. 5ta markazda ishlash faolligi ortadi.

Xulosa shuki: Ekologik tarbiya bolalarda nafaqat tabiatga nisbatan ijobiy munosabatni, balki kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, muammolarni aniqlash va ularni hal qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "ILK QADAM" davlat o'quv dasturi. (takomillashtirilgan ikkinchi nashr). Toshkent- 2022yil 4-fevral.
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-son Qarori.
3. Zinora Otaniyozovna Ermatova "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik tarbiya berishning samaradorligi"
4. Nazarov Makhsud Abduqodirovich THEORETICAL BASICS OF FORMING ECOLOGICAL THINKING AND CULTURE AMONG YOUTH Researcher at the National University of Uzbekistan <https://doi.org/10.5281/zenodo.15262170>